


BUYUK IRAK YO'LI ERTAKLARI



СКАЗКИ
ВЕЛИКОГО ШЁЛКОВОГО
ПУТИ

BUYUK IRAK YO'LI ERTAKLARI

II-QISM

Musavvir Abduqahhor Mahkamov



СКАЗКИ ВЕЛИКОГО ШЁЛКОВОГО ПУТИ

ЧАСТЬ II

Художник Абдукаххар Махкамов

«ART FLEX»
TOSHKENT – 2012

УДК 821.512.133 = 398.21

821.161.1 = 398.21

ББК 82.3 (5)

В 98

BUYUK IPAK YO'LI ERTAKLARI

В 98 Buyuk Ipak yo'li ertaklari / To'plovchi A. Muhammadjonov; Tarjimonlar: G. Sagdullayeva, A. Muhammadjonov. – Toshkent: «ART FLEX», 2012. – 64 b.
Titul varag'i va matn parallel o'zbek va rus tillarida.

I. Muhammadjonov A. (to'plovchi).

Kitob o'quvchilarni Buyuk Ipak yo'lining qiziqarli ertaklari bilan tanishtiradi. Ertaklar bolalarni ushbu savdo yo'lida joylashgan yigirmadan ortiq mamlakatlar xalq ijodiyotining boy xazinasiga olib kiradi. Ertaklarning sehrli olamiga bunday qiziqarli sayohat bolalar, keng o'quvchilar ommasini ajoyib sarguzashtlardan bahramand etadi.

УДК 821.512.133 = 398.21

821.161.1 = 398.21

ББК 82.3 (5)

To'plovchi *A. Muhammadjonov*

Muharrirlar: *N. Jumayeva, D. Tsipushkina*

Tarjimonlar *G. Sagdullayeva, A. Muhammadjonov*

Musavvir *A. Mahkamov*

Kompyuter dizayni *A. Fozilov*

Nashr. lits. AI № 167, 23.12.2009. Bosishga 13.07.2012-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x84¹/₈ Zichligi 120 grammli ofset qog'ozda chop etildi. 8 bosma taboq. Adadi 3000 nusxa. № 12-184/12-532-shartnoma. № 12-532-buyurtma.

«ART FLEX» nashriyoti, 100129, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30-uy.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining «O'zbekiston nashriyot-matbaa ijodiy uyi»da chop etildi.
100129, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30-uy.

ISBN 978-9943-301-36-8

© «ART FLEX» nashriyoti, 2012

21376/1



QOIL MASLAHAT

— QOIL MASLAHAT

Kunlarning birida uch do'st o'lis mamlakatlarga sayohatga jo'nashibdi. Yo'l ularni bir kuni bir qishloqqa boshlab kelibdi. Do'stlar bir kampirning uyida tunashga qaror qilishibdi. Yo'ldan kelganligi uchun ular yuvinib olmoqchi bo'lishibdi va:

— Onajon, marhamat qilib hammomni qizdirsangiz va yuvinishga kerakli barcha anjomlarni tayyorlasangiz. — deb kampirdan iltimos qilibdilar.

Kampir kerakli narsalarning hammasini hammomga olib kiribdi. Faqat taroqni ham qo'shishni esdan chiqaribdi.

Sayohatchilar o'zlarining hamma pullarini kampirga beribdilar va debdilar:

— Onajon, bizning pullarimiz hozircha sizda bo'lsin. Ularni bizga hammamiz jam bo'lganimizdagina qaytarasiz. Agar bizdan birontamiz kelib, bu pulni berishni talab qilsa, siz bermang.

Ular hammomga kirganlarida anjomlar orasida taroq yo'qligini sezibdilar. Bittalarini taroqqa qo'yib qo'yishibdi. U kampirning oldiga kelibdi va debdi:

— Do'stlarim buyurishdiki, siz hamma pulni menga berishingiz kerak ekan.

— Yo'q, o'g'lim bera olmayman, — debdi kampir. — Toki siz uchalangiz jam bo'lmasangiz bermayman.

— Axir do'stlarimning o'zlari shunday dedilar. Ishonmasangiz borib so'raymiz.


Ular hammomning eshigiga yaqinlashibdilar, yigit esa hammomga kiribdi va baland ovozda gapiribdi. Kampir eshik orqasida turibdi.

Shunda do'stlari qichqiribdilar:

Bering onajon, bering!

Bu so'zlardan keyin kampir hamma pulni yigitga beribdi. U esa olibdi va sezdirmay qochib ketibdi.

Ular do'st hammomda uchinchilarini uzoq kutibdilar, lekin undan darak bo'lmabdi. Ular kampirning oldiga kelibdilar va u haqida so'rabdilar.



– Sizning do‘stingiz keldi va sizlarning pulingizni unga berishimni aytdi, – javob beribdi kampir. – Sizlar “Bering onajon, bering!” deb qichqirganlaringizdan keyingina pullarni unga berdim.

– Biz uni axir taroqqa yuborgan edik-ku!

– Bilmayman, – debdi kampir. – U mendan pulni so‘radi.

Do‘stlar kampirni qoziga olib borishibdi, unga hammasini gapirib berishibdi.

Qozi ularni tinglabdi va kampir ularning pulini qaytarishi kerakligi haqida hukm qilibdi. Kampir uyiga qaytarkan, achchiq-achchiq yig‘labdi. Yo‘lda unga kichkina bola uchrab qolibdi.

– Buvijon, nimaga bunchalar achchiq yig‘layapsiz?

– Bolam, qo‘y yaxshisi so‘rama, yo‘lingdan qolma. Sensiz ham tashvishim o‘zimga yetarli.

Biroq bola kampirdan ajralmabdi. Nihoyat, u o‘zining musibati haqida gapiribdi. Kampir nimaga kuyinayotganini bola tushunibdi va unga debdi:

– Buvijon sizning g‘amingizni aritishga yordam bersam, yong‘oq olishim uchun bir necha taga berasizmi?

– Albatta beraman, azizim! O, qani endi sen yordam berolganingda edi!

– Bo‘lmasam bunday qiling, – debdi bola. – Qoziga qaytib boring va shunday deng: “Janob, uch do‘st haqiqatan ham pullarini saqlash uchun menga berishdi va ular qachon uchalamiz ham jam bo‘lsak, ularni qaytarasiz, deyishdi. Ularga uchinchi do‘stlarini topib olib kelishlarini topshiring. Shunda men ham ularning pulini qaytaraman”.

Kampir qozining oldiga qaytib kelibdi va bola qanday o‘rgatgan bo‘lsa, so‘zma-so‘z unga qaytaribdi.

Qozi sayohatchilardan so‘rabdi:

– Kampir aytganiday bo‘lganmidi?

– Ha shunday, xuddi shunday, – javob berishibdi ular.

– Yaxshi, – debdi qozi. – Sizlar do‘stlaringni boshlab kelinglar va shunda pullaringizni olasizlar.



МУДРЫЙ СОВЕТ

Однажды три друга отправились путешествовать в дальние страны. В один из дней дорога привела их в деревню. Друзья решили переночевать в доме одной старушки. Захотели они с дороги помыться и попросили старушку:

– Матушка, пожалуйста, истопите нам баню и приготовьте все банные принадлежности.

Приготовила старушка им всё, что нужно для бани. Вот только расчёску положить забыла.

Дали странники все свои деньги старушке и сказали:

– Матушка, пусть наши деньги пока побудут у вас. Вернёте их нам только тогда, когда мы втроём соберёмся. Если же кто-то из нас подойдёт и потребует эти деньги, вы не отдавайте.

Когда они вошли в баню, то заметили, что среди принадлежностей не оказалось расчёски. Послали за ней одного из них. А он подошёл к старушке и говорит:

– Мои друзья велели, чтобы вы отдали мне все деньги.

– Нет, сынок, не могу, – сказала старуха. – Пока вы все втроём не соберётесь, не дам.

– Так ведь мои друзья сами и сказали. Не верите, пойдёмте спросим.

Подошли они к дверям бани, а тот парень вошёл вовнутрь и говорит громко:

– Старушка за дверью стоит.

Тогда друзья крикнули:

– Дайте, матушка, дайте!

После этих слов старушка и отдала парню все деньги. А он взял и незаметно сбежал.

Долго ждали в бане два друга третьего с расчёской, но не дождалось. Подошли они к старушке и спрашивают о нём.

– Ваш друг пришёл и сказал, чтобы я отдала ваши деньги, – отвечает она. – Когда вы крикнули: «Дайте, матушка, дайте!», я и отдала.

– Так мы же его за расчёской посылали.



– Не знаю, – сказала старушка. – Он попросил у меня деньги.

Повели друзья старушку к судье и рассказали ему обо всём.

Судья выслушал их и рассудил, что старухе надлежит вернуть их деньги. Идёт старуха домой и плачет горькими слезами. В пути ей повстречался маленький мальчик.

– Бабушка, отчего вы так горько плачете?

– Не спрашивай, сынок. Иди своей дорогой. Мне и без тебя забот хватает.

Но мальчик не отставал от старухи. Наконец она рассказала ему о своей беде. Понял мальчик, о чём горюет старуха, и говорит ей:

– Бабушка, если я помогу вашей беде, дадите мне немного монет на орехи?

– Конечно, дам, милоч! О, если бы ты мне помог!

– Тогда сделайте так, – сказал мальчик. – Возвращайтесь к судье и скажите: «Господин, три друга действительно дали мне свои деньги на сохранение. И сказали вернуть их, когда они соберутся втроём. Поручите им найти и привести к вам своего третьего друга. Тогда я и верну их деньги».

Вернулась старуха к судье и сказала ему точь-в-точь, как научил её мальчик.

Судья спросил у странников:

– Так ли было, как говорит старуха?

– Да так, именно так, – ответили они.

– Хорошо, – сказал судья. – Приведите вашего друга и тогда вы получите свои деньги.



GAPIRUVCHI PULLAR

Bu voqea bo'lganmi yoki bo'lmaganmi, lekin bir paytlar bir Xasis yashab o'tgan ekan. Uning xotini va bolalari yarimoch holda yashar ekanlar, uning o'zi ham to'yib ovqat yemas, har doim qantoq solingan kiyimlar kiyib yurar ekan.

Uning yagona bir maqsadi iloji boricha ko'proq pul yig'ish ekan. Shu maqsadda u bir ko'za oltin va bir ko'za kumush aqcha yig'ibdi, ularni o'zining hovlisidagi devor tagiga ko'mib qo'yibdi.

Taqdir taqozosi bilan ocharchilik yili kelibdi. Xasis o'zi yashayotgan qishloq aholisi kabi ocharchilikdan ko'p azob chekibdi. Shuning uchun tun qorong'usida devor tagiga ko'mib qo'ygan bir ko'za oltin, bir ko'za kumush aqchalarini kovlab olishga majbur bo'libdi. Xasis endigina ko'zaning og'zini ocha boshlagan ekan, undan: "Tegma, men Qurbonning aqchasiman!" degan ovoz eshitilibdi.

Ajabo, bu qanday ovoz bo'ldi?! – deb ajablanibdi Xasis.

Xasis oltin tangali ko'zaning og'zini yopib, kumush tangasi bo'lgan boshqa ko'zaning og'zini ochib, shu o'zida o'sha ovoz kelibdi: "Tegma, men Qurbonga tegishliman!"

Bu nima degan gap?! – qo'rqqanicha bu ko'zani ham yopar ekan, debdi Xasis: – Men butun qurbon davomida bu oltin va kumushlarni yig'gan bo'lsam-u, bular qandaydir Qurbonga tegishli bo'lsa, qandaydir g'alati!

Xasis ko'zani qaytadan ko'mib tashlab, devor yonida o'tirib o'zicha fikr yurita boshlabdi: "Mening pullaringa ega chiqib qolgan bu yana qanday Qurbon bo'ldi ekan? Bozorda Qurbon degan zargari bor. U yaxshi usta, tilla va kumush buyumlar bilan ishlashni xush ko'radi. Oltin va kumushlar esa yaxshi zargarni his qilishadi. Shuning uchun ham pullar biz unga tegishlimiz degan bo'lganmikan? Mening shuncha qiyinchilik bilan yig'gan boyligim qandaydir zargarga tegishli bo'lsa-ya, bo'lmagan gap, bunga yo'l qo'ymayman!"

Xasis bo'lgan Xasis yugurib omborxonaga kiribdi, bolta bilan arrani olib, eshagiga o'tirganicha tilla tangalarni yo'l olibdi. Qalin bir archani kesib, uni ikkiga bo'libdi, so'ng ikkita g'o'lani eshagiga ortib, uyiga olib kelibdi.

Uyida har bir g'o'lani o'yib, kovak yasabdi. Biriga oltin, boshqasiga kumush tangalarni joylab, kovaklarni berkitibdi. Uncha katta bo'lmagan g'o'lalarni eshagiga ortib, daryo bo'yiga olib ketibdi. Ularni suvga tashlab, debdi:

Mana endi ko'tramiz, qanday qilib Qurbonning qo'liga tushar ekansizlar!

Xasis uyiga qaytib, o'zini qo'yarga joy topolmabdi, kechasi bilan uxlay olmay, o'zini o'zi koyibdi. "Nima qilib qo'ydim. Yillab yig'gan boyligimni o'z qo'lim bilan daryoga tashlab yubordim-a!"

Xasis ertalabgacha ko'z yummasdan tong ottiribdi, so'ng shoshilgan holda kiyinib, pullari joylangan ikkita g'o'lani qidirib topish uchun daryo tarafga yo'l olibdi.

Daryo bo'ylab yurar ekan, bir bu qirg'oqqa, bir narigisiga nazar solar, daryoga tashlab yuborgan g'o'lalari qirg'oqlarning biriga kelib to'silib qolishiga umid qilardi.

Daryo bir shahar orqali oqib o'tar edi. Ushbu shaharda Qosimboy ismli bir boy yashar edi. Uning ikki ishehisi har kuni daryo bo'yida turib, oqib kelgan daraxt shoxchalari, g'o'la va to'nkalarni tutib, ularni boyning uyiga eltib tashlardilar. Kunlarning birida ular Hasisning o'sha ikki g'o'lasini tutib olib, boyning hovlisiga olib kelibdilar.

Shu shaharda Qurbon ismli kambag'al temirchi ham yashardi. U boydan o'tinlarni qarzga olardi. Boyning xizmatkorlari Xasisning g'o'lalarini daryodan tutib olgan kuni Qosimboy temirchi Qurbonni chaqirib, debdi:

Sen mendan olgan qarzlaringni to'lay olmas ekansan, menga bir ish qilib berasan. Mening xo'jalik hovlimga borib, u yerdagi o'tinlarni eshakka ortgin-da, menga ulardan yog'och ko'mir tayyorlab ber, tezroq qimirla!

Boyning xo'jalik hovlisida turgan Xasisning xuddi o'sha ikkita g'o'lasini Qurbonga ma'qul kelibdi.

Mana shu archa g'o'lalaridan yaxshi ko'mir chiqadi, – deb temirchi ularni eshagiga ortibdi.

Qurbon g'o'lalarni o'z ustaxonasiga keltiribdi. Ularning birini bolta bilan chopgan edi, ikkiga bo'linib, undan kumush tangalar sochilib chiqibdi.

Xotin, xotin! – sekingina chaqiribdi Qurbon ajablanib. – Tez bu yoqqa chiq, bironta idish ham ola kel!

Idish bilan yugurib kelgan temirchining xotini yerda sochilib yotgan kumush tangalarni ko'rib, hayajonga tushganicha ularni tera boshlabdi.

Ularni uyga olib borib yashir, – debdi temirchi. – Endi Qosimboydan olgan hamma qarzimni to'layman. Qurbon ikkinchi g'o'lani olib, unga bolta urgan edi hamki, u ham ikkiga bo'linib, undan ham tangalar sochilib chiqibdi. Endi ular oltin tangalar edi.

Xotin, xotin! – ayolini yana chaqiribdi temirchi. – Ikkinchi idishni keltir.

Qanday baxt! – quvonibdi xotini. – Mana endi bolalarimizning usti but, qorni to'q bo'ladi.

Ertalab boyga qarzimni berib, bozorga boraman, – debdi Qurbon-temirchi. – Yog'-moy, guruch, qo'y go'shti, bolalarga shirinliklar sotib olaman, hammaga yangi kiyim-kechak xarid qilaman. Sandon, bolg'a va boshqa asbob-uskunalarimni yangilab, ish joyimni qayta quraman. Ishim yurishib, hayotda bekam-u ko'st yashaymiz.

U xuddi shunday qilibdi.

Bu vaqtda Xasis bir necha kunlardan beri daryo bo'yini kezib yurib, temirchi yashaydigan shaharga kelib qolibdi. Kech kirib qolgan, Xasis duch kelgan odamdan so'rardi:

Men musofirman, qayerda tunasam bo'ladi?

Istagan eshigingni taqillat, mehmon kelsa, hamma xursand bo'ladi, – debdi unga uchragan kishi.

Xasis uning gapiga kirib, Qurbonning eshigini taqillatibdi.

Kim u? – so'rabdi Qurbon eshik orqasidan.

– Men musofirman, – javob beribdi Xasis. – Agar sizga malol kelmasa, bir kecha tunab ketishga ruxsat bersangiz.

Xush kelibsiz, mehmonim bo'lasiz, – javob beribdi Qurbon.

Temirchi xotiniga choy va ovqat olib kelishni buyuribdi.

Hurmatli mehmon, qayerdan kelyapsiz va qayerga yo'l olmoqdasiz? – so'rabdi temirchi Xasisdan ovqat yeb bo'lishgach.

Nima desam ekan, – g'amgin javob beribdi Xasis. Boshimga tashvish tushib, og'ir kun bo'lganga qoldim. Siz mehribon, ko'ngli ochiq insonga o'xshaysiz, mayli sizga boshimdan o'tganlarni qaytarib beray.

Xasis Qurbonga bo'lib o'tgan voqealarni so'zlab beribdi. Qurbon gap nimadaligini tushunib, boshini egib, o'ylanib qolibdi. Xasis uxlashga yotgach, u boshqa uyga o'tib, xotiniga sekinlik bilan debdi:

– Bizga nasib etgan kumush va oltin tangalarning egasi topildi. Biz unga qolgan pullarni qaytarishimiz lozim. Lekin u yetishmayotgan pullarni sezmasligi kerak. Nima qilamiz?

Shunda xotini debdi:

– Men ertalab ikkita non yopaman. Bittasiga kumush, ikkinchisiga oltin tangalarni joylashtiraman. Mehmon ketayotganida yo'lga ikkita nonni beramiz. Shunday qilib, u qolgan pullarni o'ziga ketadi.

Temirchiga xotining taklifi ma'qul tushibdi.

Ertalab nonushtadan keyin temirchining xotini musofirga ikkita non beribdi.

– Juda mehmondo'st ekansizlar, sizlarga ming rahmat! Men daryodan pullarimni topamanmi, qimmi, bilmayman. Lekin haqiqiy uy egasi qanday bo'lishini bilib oldim, – deganicha Xasis temirchining uyini tark etibdi.

Shahar chegarasiga yetib kelib, Xasis oyoq kiyimlarining yirilganini payqabdi. Etikdo'zning oldiga kelib so'rabdi:

Usta, oyoq kiyimlarim yirtilib, ishdan chiqdi, hali uzoq yo'l yurishim kerak bo'ladi. Ularni ta'mirlab bersangiz, lekin pulim yo'q. Pul o'rniga ikkita non bersam rozimisiz?

Etikdo'z Xasisning oyoq kiyimlarini ta'mirlab berishga rozi bo'libdi.

– Bu qanday etiklar bo'ldi? Necha yildan buyon etikdo'zlik qilayotgan bo'lsam, haligacha qanday qo'pol charmlarni ko'rmagan edim. Hech qachon bigiz sindirmagan edim. Hozirning kunda bir emas, to'rtta bigizni sindirdim, – debdi etikdo'z. – Bugun hali pul ishlaganim yo'q edi. Sizing noningizni yangi bigiz olish uchun temirchiga berishimga to'g'ri keladi.

– Bitta non yetmasa kerak, ikkinchisini ham olaqoling, – debdi Xasis.

Etikdo'z ikkala nonni olib, Qurbon-temirchining oldiga boribdi. Temirchi unga to'rtta yangi bigiz yasab beribdi.

Qurbon-temirchi, – debdi etikdo'z, – Xafa bo'lmaysan, men hali pul ishlay olmadim. Rahmat uchun ikkita non bersam bo'ladimi?

Menga bittasi ham yetadi, – javob beribdi Qurbon va ikkinchi nonni etikdo'zga qaytarib beribdi.

Kechqurun Qurbon xotiniga etikdo'zdan olgan nonni beribdi. Xotini nonga qarab turib, birdan xotini qaytarib yuboribdi:

Axir bu men ertalab yopgan non-ku!

Nonni ikkiga bo'lgan edilar, undan oltin tangalar sochilib chiqibdi.

Bu tangrining jazosi, – hayqiribdi Qurbon. – Nima qilsam ekan? Men birovning pulidan foydalanishni istamayman!

Pullarning egasini qayerdan topamiz? – so'rabdi temirchining ayoli. – U ancha uzoqqa ketgan bo'lgandir.

Ha, men endi tushundim! Farishtalarning nazari senga tushgan bo'lsa kerak, Qurbon. Sen boshqalardan ham ular seni tashlab ketgisi kelmayapti, – debdi o'ziga o'zi Qurbon.

Xasis esa, uyiga qaytib borib, ilgarigidek yarimoch yashamaslikka qaror qilibdi, endi pul g'amasidan ularni oilasining farovonligi uchun sarf qilishga ahd qilibdi.





ГОВОРЯЩИЕ ДЕНЬГИ

(СТАВРИНСКАЯ НАРОДНАЯ СКАЗКА)

Было это или не было, но рассказывают, что жил на свете один Скупой. Жена и дети его жили впроголодь, да и сам Скупой недоедал, носил одежду всю в заплатках. Он жил одной лишь заботой – как можно больше скопить денег. Так он накопил кувшин золота и кувшин серебра и зарыл их у себя во дворе под стеной.

Однажды выдался неурожайный, голодный год. Скупец, как и все жители деревни, был изнурён голодом. Вынужден был он глубокой ночью откопать свои кувшины с золотом и серебром, зарытые под стеной. И только Скупой стал открывать горловину одного из кувшинов, как вдруг: «Не тронь, мы деньги Курбана!» – донёсся откуда-то голос.

– Ой! Что это за голос?! – воскликнул удивлённый Скупой.

Быстро закрыл он кувшин с золотом и хотел открыть другой кувшин – с серебром, как опять тот же голос прокричал: «Не тронь, мы деньги Курбана!»

– Как это так?! – сказал испуганно Скупой, закрывая и этот кувшин. – Я всю жизнь собирал это золото и серебро, а они вдруг будут принадлежать какому-то Курбану? Чудеса!

Закопал обратно Скупой кувшины, сел у стены и размышляет: «И какой же это Курбан вдруг стал хозяином моих денег? Вот на рынке есть ювелир Курбан. Он хороший мастер и любит работать с золотом и серебром. А золото и серебро очень любят хорошего ювелира. Вот они и заговорили, что принадлежат ему. Неслыханное дело, мои кровные сбережения должны принадлежать какому-то ювелиру. Не бывать этому!»

Побежал рассерженный Скупой в сарай, взял топор и пилу, сел на своего осла и поехал в сторону гор. Срубил он одну толстую ель, распилил ствол на две части, погрузил их на осла и привёз домой.

Дома он выдолбил в каждом бревне дупло, в одно положил золото, в другое – серебро и закрыл их. Потом погрузил эти небольшие брёвна на осла и повёз к реке. Выбросил их в воду и говорит:

– Теперь поглядим, как вы к Курбану попадёте!

Вернувшись Скупой домой, места себе не находит, ночью заснуть не может, казнит себя: «И что же я наделал? Сам, своими руками выбросил в реку годами накопленное богатство».

До утра глаз не сомкнул Скупой, а с рассветом наспех оделся и пошёл к реке искать свои два брёвнышка с деньгами. Идёт он вдоль реки, смотрит то на один берег, то на другой в надежде, что они застряли или их прибило их какому-нибудь берегу.

Река проходила через один город. Жил в этом городе богач по имени Касымбай. Два его работника каждый день стояли у реки и вылавливали из неё ветви деревьев, брёвна, поленья и относили их в дом богача. В один из дней поймали они те самые два бревна Скупого и отнесли во двор бая.

Жил в этом городе и бедный кузнец Курбан. Он брал у бая дрова в долг. Как раз в тот день, когда работники бая выловили из реки брёвна Скупого, Касымбай позвал кузнеца Курбана и сказал:

– Раз не можешь уплатить свой долг, отработаешь у меня. Походи в мой хозяйственный двор, нагрузи на осла дров и приготовь мне древесный уголь, да пошевеливайся!

Курбану в хозяйственном дворе как раз приглянулись два бревна Скупого.

– Вот из этих словых брёвен получится хороший уголь, – сказал он сам себе и погрузил их на своего осла.

Привёз Курбан брёвна в свою мастерскую, взял топор и ударил по одному из них. Бревно раскололось надвое, и оттуда посыпались серебряные монеты.

– Жена, жена! – тихо позвал изумлённый Курбан. – Быстро иди сюда, да принеси с собой блюдо!

Прибежала жена кузнеца с блюдом и видит, на полу уйма серебряных монет лежит. Разволновалась вся, стала собирать.

– Отнеси их домой и спрячь, – сказал кузнец. – Теперь я выплачу Касымбаю всё, что задолжал.

Взял Курбан второе бревно и разрубил топором. Раскололось оно надвое, и оттуда тоже посыпались монеты, только золотые.

– Жена, жена! – опять зовёт кузнец. – Неси скорее второе блюдо!

– Счастье-то какое! – радуется жена. – Вот теперь наши дети будут сыты, обуты и одеты.

– Утром отдам долг баю, а потом пойду на базар. – говорит Курбан-кузнец. – Куплю риса, масла, мяса бараньего, детям сладкого. Всем нам одежду, обувь куплю новую. Наконьяльную, молотки и молоты обновлю, а кузницу заново отстрою. И дела мои пойдут на лад, заживу я без нужды, в достатке.

Так он и сделал.

А тем временем Скупой уже несколько дней шёл вдоль берега реки и пришёл в тот самый город. Была уже поздняя ночь. Скупой спросил у первого встречного:

– Я странник, мне бы где-нибудь переночевать. Не знаете где?

– Постучи в любую дверь, гостю будут рады, – ответил прохожий.

Скупой так и сделал. А это был дом Курбана.

– Кто там? – спросил Курбан за дверью.

– Это странник, – ответил Скупой. – Если вам не трудно, могли бы вы позволить мне переночевать у вас.

– Добро пожаловать, гостем будете, – ответил Курбан.

Кузнец велел жене принести в гостиную чай и еду.

– Дорогой гость, откуда вы и куда держите путь? – спросил кузнец у Скупого после трапезы.

– Да что вам сказать, – грустно сказал Скупой. – Постигла меня беда, трудные дни свалились мне на голову. Вы, видите, добрый и благородный человек, так и быть, поведаю я вам.

Скупой рассказал Курбану обо всём, что с ним случилось. Понял Курбан в чём дело, склонил голову и задумался. Когда Скупой лёг спать, он вышел в другую комнату и тихо сказал жене и детям:

– Нашёлся владелец тех серебряных и золотых монет. Мы должны вернуть ему оставшиеся деньги, но надо сделать так, чтобы он не догадался о нехватке части денег. Что будем делать?

Тут жена говорит:

Я утром испеку две лепёшки. В одну из них положу золото, в другую – серебро. Когда гость будет уходить, мы дадим их ему в дорогу. Так он унесёт оставшиеся деньги.

Кузнецу понравилось предложение жены. Они так и поступили.

Утром, после завтрака, жена кузнеца дала гостю в дорогу две большие лепёшки.

– О гостеприимный человек, тысячекратное тебе спасибо! Я не знаю, найду ли я свои деньги в реке. Но теперь знаю, каким нужно быть хозяином, – сказал Скупой, покидая дом кузнеца.

Подходя к границе города, Скупой заметил, что у него порвалась обувь. Пошёл он к сапожнику и просит:

– Мастер, у меня обувь вся порвалась, а путь предстоит долгий. Почините мне, пожалуйста. Только вот денег у меня нет. Согласны ли вы вместо денег взять две мои лепёшки?

Согласился сапожник, взял на починку изорванную обувь Скупого.

– Ну и сапоги! Столько лет сапожничая, но такой грубой кожи не видел и никогда шило не ломал, а тут аж четыре сломались. Вы здесь посидите, а я схожу к кузнецу за новым шилом, – сказал сапожник. – Сегодня я ещё не заработал, так что придётся вашу лепёшку дать кузнецу за работу.

– Одной лепёшки может не хватить, возьмите и вторую, – сказал Скупой.

Взял сапожник обе лепёшки и пошёл к кузнецу Курбану. Тот ему изготовил четыре новых шила.

Не обижайся, Курбан-кузнец, заработка у меня еще не появилось, можно я тебе за работу дам две лепёшки?

– Хватит мне и одной, – ответил Курбан и вернул вторую лепёшку сапожнику.

Вечером Курбан дал жене лепёшку, которую получил от сапожника. Посмотрела жена на неё, поглядела, да как вдруг закричит:

– Это же та лепёшка, которую я утром испекла!

Разломилла она лепёшку пополам, а оттуда посыпались золотые монеты.

– Это наказание всевышнего! – воскликнул Курбан. – Что же теперь делать?! Я не желаю использовать чужие деньги!

– Где же мы найдём владельца этих денег? – спросила жена кузнеца. – Он, наверное, уже очень далеко ушёл.

– А! Я всё теперь понял! Взоры святых милостиво упали на тебя, Курбан. Поэтому эти деньги не хотят покидать тебя, – сказал кузнец сам себе.

Скупой же, вернувшись домой, решил не жить как прежде впроголодь и копить деньги, а тратить их на благополучие своей семьи.





QO'LI GUL AYOL

Qadim zamonlarda bir shaharda boy yashagan ekan. Har kuni yetti qavat ko'rpacha to'shalgan supada o'tirib nonushta qilar ekan.

– Hoy, xotin, sen Oллоhga ming karra shukur qilishing kerak. Negaki, sen, mening xotinimsan. Mening boyligim tufayli boylikka, obro'-e'tiborim orqasidan baxt-saodatga egasan, shuning orqasidan shaharning eng hurmatli ayoliga aylanding.

Bu holat har kuni takrorlanar, boy o'zini maqtab, xotinini yerga urar ekan. Aslida uning xotini oqila va mehnatkash edi. Har kuni erta tongdan turib, mollarga yem berar, sigir sog'ar, eriga va uning to'satdan paydo bo'lib qoladigan mehmonlariga ovqat tayyorlar edi. Ishlar shunchalik ko'p ediki, ayoli charchoqdan holdan toyib qolish darajasiga yetardi. Boyning xizmatkorlari ko'p bo'lishiga qaramay, xotiniga yordamchilar bermas edi. Boyning ayoli esa, bu vaqtda bir o'zi hamma ishlarni eplar, hatto bo'sh vaqt topib, do'ppi ham tikar edi. Bozorda uning tikkan do'ppisi yuqori bahoda sotilar, pulini eriga berar edi.

Kunlarning birida boy har doimgidek, o'zini maqtab, xotinini yerga uribdi. Ayoli esa, bu gal chidab tura olmabdi. U eriga:

– Men ilgari haqiqatan ham siz tufayli ustim but, qornim to'q, deb o'ylardim, endi o'ylab ko'rsam, sizning boyligingizning ko'payishida mening ham hissam bor ekan. Meni bekorga koyiyapsiz, – debdi.

Kutilmaganda xotinining gap qaytarishidan ko'zlari qinidan chiqib ketgan boy o'rnidan irg'ib turib, baqiribdi:

– Ayolning sochi uzun, aqli kalta deganlari to'g'ri ekan. Menga gap qaytarishga qanday jur'at eding. Agar men bo'lmaganimda sen kambag'alchilikda, muhtojlikda yashagan bo'lar eding! Yo'qol ko'zimdan, senga uch taloq qo'ydim.

Bu gal ayol erining gaplaridan cho'chimabdi, nafrat bilan boyning yog' bosgan qizil yuziga qarab debdi:

– Yaxshi, men sizning ko'z oldingizdan yo'qolaman. Lekin bu bilan men kambag'al bo'lib qolmayman va muhtojlikda yashamayman. Men shu shaharning eng qashshoq bir kishisiga turmushga chiqaman, uni boy-badavlat, baxtli inson qilaman!

Ayol narsalarini bir tugunga bog'lab, boyning uyidan chiqib ketibdi. Shaharga borib, bu shaharning eng kambag'al kishisi o'tin yig'uvchi Said ekanligini bilib olibdi. Odamlardan so'rab-

sarshirib ayol Saidning uyini topibdi. Saidning eskirgan, qiyshayib qolgan uyi ochiq ekan. Uy ichidagi anhadan buyon supurilmagan, devor va to'sinlari yemirilish arafasidagi ko'rinishda ekan. Ichkarida esa, yerga to'shalgan eski ko'rpacha, kirligidan qotib qolgan yostiqlik bor edi. Ichki choqning ustida quloqlari uchgan qozon, qop-qorayib ketgan chovgun, turli joylari cheklangan idish-tovoqlar yotardi.

Ayol ariqdan suv olib kelib, hovliga suv sepibdi va tozalab supuribdi. Ko'rpa-to'shak, yostiqni yuvib, uy ichini tartibga solibdi. Keyin do'ppi tikishga o'tiribdi.

Sal o'tmasdan Said uyiga qorayib, eskirib ketgan yamoqli ko'ylakda, oyog'ida etikka o'xshash bir narsa bilan kirib kelibdi. U o'zi bilan olib kelgan ikki bog'lam o'tinni bir burchakka qo'yibdi. O'tni qanday qilib tozalangan hovlini, arqonda osig'liq turgan kirlarni ko'rib hayratlangan Said ayolga mo'ralabdi. U yer ham yig'ishtirilgan, toza edi. Uyda xushro'ygina, yoshgina bir ayol do'ppi tikib o'tirar edi.

– Men adashib boshqa uyga kirib qoldim shekilli, – deb Said chiqib ketmoqchi bo'libdi.

– Siz adashmadingiz. Kiring, bu sizning uyingiz, – javob beribdi uni kutib olgan ayol.

Said hayratdan joyidan qo'zg'ala olmasdan qolibdi.

– Hayron bo'lmang, men sizning uyingizga keldim. Agar siz rozi bo'lsangiz, men siz bilan shu yerda yashar edim.

Said bu hodisalar uning ko'z o'ngida bo'layotganiga ishonmasdan, xursandlik bilan boshini qamirlatib rozi bo'libdi.

– Siz kuningizni qanday o'tkazasiz? – so'rabdi ayol uy egasidan.

– Men har kuni tog'ga chiqaman. – hikoyasini boshlabdi Said. – ikki quloch o'tin terib kelib, ularni bozorda sotaman. Uning puliga un sotib olib, yovg'on sho'rva tayyorlab yeb olaman, keyin uxlashga yotaman.

– Unday bo'lsa, siz o'tinlaringizni bozorga olib borib sotishga ulgurasiz. Pulning yarmiga un olib, qolganini qaytarib olib keling.

– Olgan unim ikkimizga yetmaydi, shekilli, – o'ylabdi Said. – Aqlli ayolga o'xshaydi, nima qilishni biladi, nimani iltimos qilgan bo'lsa, hammasini bajaraman". Saidni bozorga kuzatib qo'yib, ayol yana do'ppi tikishga o'tiribdi.

Kechqurun Said uyga qaytib, ayolga un va pulni beribdi. Ayol yovg'on sho'rva tayyorlabdi, birga ovqatlanishibdi. Said odatdagidek uxlashga horzirlanayotgan ekan, ayol unga qarab debdi:

– Qorong'i tushmasidan loy tayyorlab, uy va devorlarning o'pirilib tushgan joylarini suvab ta'mirlang.

Said istar-istamas uy va devorlarni ta'mirlashga tushibdi, ayol esa, yana do'ppi tikishga o'tiribdi.

Ertasi kuni ayol Saidni odatdagidan ertaroq uyg'otib, unga debdi:

– Bugun to'rt quloch o'tin terishga harakat qiling va ularni to'g'ri bozorga olib boring. Mana bu tikilgan do'ppilarni ham soting. O'tin va do'ppilarning sotilgan yarim puliga guruch, un, piyoz, yog', sabzavotlar sotib oling. Shuningdek, yangi qozon, ikki-uchta idish-tovoq xarid qiling. Pulning qolgan yarmini uyga olib keling.

Said ayolning hamma aytganlarini bajaribdi. Ayol Saidni xushnudlik bilan kutib olibdi, shu zahotiyoq ovqat tayyorlashga kirishibdi. Non yopibdi, keyin to'yimli sho'rva tayyorlabdi. Xantaxtaga toza dasturxon to'shab, non va ikkita yangi kosada sho'rva keltiribdi. Said nonni sho'rvaga botirib iste'mol qilgan ekan, lazzatlanib shunday debdi:

– Qanday mazali! Hayotimda bunday mazali taomni tatib ko'rmagan edim.

– Mehnat rohatbaxshlik keltiradi. Bekorga shunday deymagan, – debdi ayol so'zida da'mon etib. – Agar biz siz bilan sidqidildan mehnat qilsak, oddiy non emas, balki patir, yovg'on sho'rva emas, go'shtli mazali sho'rva tanovul qilishimiz mumkin.

– Shunday ekan. – debdi xursand bo‘lgan Said, – sidqidildan mehnat qilishga tayyorman. Ayt, nima qilay?

– Hali juda erta, – debdi ayol, – siz yana uch-to‘rt quloch o‘tin tayyorlasangiz juda yaxshi ish bo‘lar edi.

Said bolta va arqonni olib, o‘tin tayyorlashga ketibdi, ayol esa yana o‘z tikishiga o‘tiribdi.

Saidning harakatchanligi kundan kunga ortib borar ekan. Ular yanada yaxshiroq yashay boshlabdilar. Tez orada mulla chaqirib, nikohdan ham o‘tib olishibdi.

Bir kuni ertalab ayol Saidga, sotilgan o‘tin va do‘ppilardan yig‘ilgan pullarni berib, shunday debdi:

– Mana bu pulga yaxshigina eshak sotib oling. U mehnatingizni yengillashtiradi.

Said eshak yordamida to‘rt emas, o‘n to‘rt, o‘t sakkiz bog‘lamli o‘tinni bozorga olib borib sotar, bo‘sh vaqtida esa, uy va hovlini obodonlashtirish bilan shug‘ullanar ekan. Hovliga kiriladigan kichkina eshikcha o‘rniga katta yangi darvoza quribdi, uydagi barcha eshik va derazalarni yangilabdi, hovlini gullar va daraxtlar bilan bezabdi. Uy anjomlari, idish-tovoqlargacha yangilanibdi. Ko‘rpa-to‘shak, kiyim-kechaklari ham binoyidek bo‘libdi.

Kunlardan bir kuni ayol Saidga shunday debdi:

– Uyimizga shahrimizning taniqli kishilarini mehmondorchilikka chaqirsak yaxshi bo‘lar edi.

To‘q, baquvvat va boy kishilar orasida ayol o‘zining sobiq erini ham sanab o‘tibdi. Said mehmonlarni taklif qilishga ketibdi, ayol esa, qo‘shnilarini chaqirib, turli-tuman noz-ne‘matlar, nonlarning eng mazalisi – patir tayyorlabdi. Gullar bilan o‘ralgan supaga yetti qavatli ipak ko‘rpachalar to‘shabdi.

Tez orada barcha mehmonlar yig‘ilibdi. Mehmondorchilikning eng qizigan paytida yuqori martabali mehmonlardan biri Saiddan so‘rab qolibdi:

– Said biz seni shahrimizning eng kambag‘al kishisi sifatida bilar edik. Keyin eshitsak, sening hayoting tobora yaxshilanib bormoqda ekan. Mana endi o‘z ko‘zimiz bilan ko‘rdikki, sening turmushing boy va farovon bo‘libdi. Sen bunday martabaga qanday erishding?

– Men xotinim tufayli o‘z baxtimni topdim. – deb javob beribdi Said.

Barcha Saidning javobidan taajjubga tushibdi. Faqat ayolning sobiq erigina bundan ajablanmabdi.

– Said haqiqatni gapiryapti, men unga ishonaman, – debdi u. – Mening mehribon va mehnatkash ayolim bor edi. Lekin uning qadriga yetmadim. Faqat uni haydab chiqarganimdan keyingina, mehnatkash, mehribon va oqila ayol qanday bo‘lishi kerakligini tushunib yetdim.

Boy yig‘ilganlarga turli toifadagi xizmatkorlar va yordamchilarni o‘ziga qanday yollaganini, ularga nisbatan qattiqqo‘l hamda talabchan bo‘lgani, lekin hayoti xotini bor paytidagidek o‘nglanmaganini kuyinib so‘zlab beribdi. Xotiniga bo‘lgan salbiy munosabatlari va unga yetkazgan dilozorliklaridan juda ham afsuslanayotganini bildiribdi.

– Menga ayt-chi, sen bunday qo‘li gul ayolni qayerdan topding, – deb murojaat qilibdi boy Saidga.

– Uning o‘zi mening uyimga kirib keldi, – deb baxtiyor holda javob beribdi Said.

Shu so‘zlardan keyin boy, u ayol o‘zining sobiq xotini ekanligini tushunib yetibdi. Xotining “Men shahardagi eng kambag‘al kishiga turmushga chiqaman, uni boy va baxtiyor qilaman”, – degan gaplari yodiga tushibdi.

“Ha, u o‘zining haqligini isbotladi”, – debdi ichida boy. Shundan so‘ng u o‘zida qandaydir og‘riqni sezibdi. Shu og‘riq bilan umrining oxirigacha yashab o‘tibdi.





УМЕЛАЯ ЖЕНЩИНА

(ТАДЖИКСКАЯ НАРОДНАЯ СКАЗКА)

В давние времена в одном городе жил богач. Каждое утро он восседал на суфе (глиняное возвышение четырёхугольной формы) на семи мягких шёлковых одеялах и завтракал. Наевшись, богач звал свою жену и начинал бахвалиться:

– Эй, жена, ты должна воздать хвалу Аллаху, что стала моей женой. Благодаря моему богатству, уму, авторитету ты утопаешь в счастье и благоденствии. Я тебя из бедной и простой девушки своим высоким положением и влиянием сделал известной и уважаемой среди всех женщин города.

И так было каждый день: богач восхвалял себя и всячески хулил жену. А жена его была умная и трудолюбивая женщина. Каждое утро, вставая спозаранку, она кормила скот, доила коров, чистила двор, готовила еду для мужа и его ненасытных гостей. Так было много работы, что жена чуть не валилась с ног от усталости. Хотя у бая было много работников, но жене он не давал помощников. А она безропотно справлялась с работой одна и даже выкраивала время на вышивание тюбетеек. На базаре их раскупали по высокой цене, и эти деньги она отдавала мужу.

Однажды бай как всегда расхваливал себя и корил свою жену. Она не выдержала и сказала:

– Сначала и я думала, что благодаря только вам я сыта и обута. Подумав, я поняла, что в увеличении вашего богатства есть доля и моего труда. Так что вы напрасно попрекаете меня.

Бай вытарашил глаза от неожиданности, что жена позволила себе перечить мужу. Разгневался бай, вскочил с места и закричал:

– Эй, ты, с длинной косой и коротким умом! Как ты посмела говорить мне такие слова?! Без меня ты давно стала бы нищенкой и валялась в грязи! Убирайся прочь, даю тебе развод! Не показывайся мне на глаза!

Только не испугалась женщина в этот раз, посмотрела с отвращением на толстого бая с жирным красным лицом и сказала:

– Хорошо, я удаляюсь с ваших глаз. Но это не сделает меня нищей, и не помру я от голода в куче грязи. Я выйду замуж за самого бедного в этом городе человека и сделаю его богатым и счастливым!

Собрала женщина свои вещи в узелок и ушла со двора бая. В городе она узнала, что дровосек Саид самый бедный и одинокий человек в этом городе. Расспрашивая людей, женщина нашла дом Саида. Старая покривившаяся калитка была открыта. Женщина, войдя, увидела давно не подметавшийся грязный двор, забор и стены дома почти разваливались. А внутри на полу лежало старое рваное одеяло и затвердевшая от нестирки подушка. У печки стоял котёл с отбитым краем, чёрный-пречёрный от сажи чугунный чайник, скреждённые скобами разбитые чашки.

Женщина принесла воды из арыка, полила двор и подмела его. Постирала чехлы от одеяла и подушек, навела в доме чистоту и порядок. Затем села вышивать тюбетейку.

Вскоре вернулся домой Саид. Он был одет в грязную ветхую рубашку, всю в заплатках, на ногах было что-то похожее на обувь. Саид нёс две вязанки дров. Свалив их в угол, он увидел чисто подметённый двор, выстиранное бельё висело на верёвке. Удивлённый Саид заглянул в дом. И там тоже чистота и порядок. В комнате сидела молодая красивая женщина и вышивала тюбетейку.

– Видно, я попал не в свой дом, ошибся, – сказал Саид, собираясь уходить.

– Вы совсем не ошиблись. Заходите, это ваш дом, – ответила женщина, встречая его.

От удивления Саид застыл на месте, двинуться не может.

– Не удивляйтесь. Это я пришла к вам в дом. И если вы разрешите, хотела бы жить здесь с вами.

Саид не верил, что всё это он видит своими глазами и слышит собственными ушами. От радости он согласно закивал головой.

– Расскажите, как вы проводите свой день, – попросила Саида женщина.

– Я каждый день хожу в горы, – начал рассказывать Саид, – собираю по две охапки дров, продаю их на базаре. На эти деньги покупаю муки, делаю из неё похлёбку, наевшись, ложусь спать.

– Ну, тогда вы ещё успеете отнести дрова на базар. На половину вырученных денег купите муку, а половину принесите обратно.

«Столько муки не хватит на двоих, – подумал Саид. – Видать, она умная женщина, знает, что делает. Сделаю так, как она просит».

Проводив Саида на базар, женщина снова села за вышивание тюбетейки.

К вечеру вернулся Саид и отдал женщине муку и деньги. Она приготовила похлёбку, и они вместе поужинали. Саид по привычке собрался идти спать, но женщина ему сказала:

– Пока не стемнело, замесите глину и почините обваливающиеся места забора и стен дома.

Саид нехотя пошёл заниматься починкой забора и стен дома, а женщина снова села за вышивание.

На следующее утро женщина разбудила Саида намного раньше, чем он обычно вставал, и сказала ему:

– Постарайтесь сегодня собрать четыре вязанки дров и прямо несите на базар. Вот эти вышитые тюбетейки тоже продайте. На половину денег от продажи дров и тюбетеек купите рис, муку, лук, редьку, масло, а также новый котёл и две-три чашки. Половину денег принесите домой.

Саид в точности исполнил всё, что просила женщина. Она приветливо встретила вернувшегося Саида и тут же принялась готовить еду. Из муки испекла в новом котле лепёшку, а затем сварила постный суп. Накрыла стол чистой скатертью, принесла лепёшку и суп в новых чашках. Саид, макая лепёшку в суп, причмокивал от удовольствия и приговаривал:

– Ух, ух как вкусно! В жизни не ел такого чуда!

– Труд приносит удовольствие. Ведь недаром так говорят, – сказала женщина. – Если мы с вами будем усердно трудиться, то будем есть не просто лепёшку, а сдобную лепёшку, не просто суп, а мясную вкусную шурпу.

– Если так, – сказал довольный Саид, – я готов к усердному труду. Говори, что надо делать!

– Ещё совсем рано, – сказала женщина, – если бы вы собрали ещё три-четыре вязанки дров, было бы очень хорошо.

Саид взял топорик, верёвку и отправился за дровами. А женщина продолжила свою вышивку.

Усердие Саида росло с каждым днём. Жизнь их становилась все лучше и лучше. Вскоре они уже смогли пригласить мулду и пожениться.

Однажды утром жена дала Саиду деньги, накопленные от продажи дров и тюбетеек, и сказала:

– На эти деньги купите хорошего осла. Он облегчит ваш труд.

С ослом Саид мог уже нести на базар не четыре вязанки дров, а четырнадцать-восемнадцать вязанок. А в свободное время он занимался благоустройством двора и дома. Поставил вместо калитки большие новые ворота, огородил новым забором двор, заменил на новые все окна и двери в доме, засадил двор цветами и деревьями. Теперь у них была хорошая посуда, новая постель и приличная одежда.

Как-то женщина сказала Саиду:

Было бы хорошо, если бы мы пригласили в гости уважаемых людей города.

Среди зажиточных и богатых людей она назвала и имя её бывшего мужа. Саид пошёл приглашать гостей, а женщина позвала близких соседей и с их помощью стала готовить всевозможные яства, испекла самые сдобные лепёшки – патыр. В середине сада на суфе окружённой цветником постелила в семь рядов шёлковые одеяла.

Вскоре собрались все гости. В самый разгар угощения один из высоких вельмож города спросил у Саида:

– Послушай, Саид, все мы знали тебя как самого бедного человека в нашем городе. Потом услышали, что твоя жизнь стала улучшаться. А теперь мы и сами видим твою богатую и зажиточную жизнь. Скажи, как тебе удалось достичь таких высот?

– Обрёл я счастье, – ответил Саид, – благодаря моей жене.

Все удивились ответу Саида. Не удивился только бывший муж этой женщины.

– Саид говорит истинную правду, и я ему верю, – сказал он. – У меня была очень трудолюбивая и добрая жена, но я совсем не ценил её. И только после того, как я прогнал её, понял, что значит хорошая, трудолюбивая и добрая жена.

Бай рассказал всем о том, как он нанимал разных слуг и помощников, держал их в строгости и требовательности, но никак ему не было лучше, чем при жене. Он очень сожалел и раскаивался в своих плохих поступках и обидах, нанесённых жене.

Скажи-ка мне, где ты нашёл такую умелую жену, – обратился он к Саиду.

Она сама ко мне пришла, – ответил, счастливо улыбаясь, Саид.

После этих слов бай понял, что это была его прежняя жена. Ему вспомнились её слова: «Я выйду за самого бедного в этом городе человека и сделаю его богатым и счастливым!»

«Да, она доказала свою правоту», – сказал про себя бай. Он почувствовал сильную боль. И с этой болью он жил всю свою жизнь.



QARG'A VA ILON

Xotirlab bo'lmas zamonlarda tog' cho'qqisida qarg'a yashab o'tgan ekan. Uning uyasi yaqinida ilonning ini bo'lgan ekan. Dilsiyoh bo'lgan qarg'a o'zining musibatini shoqol bilan o'rtoqlashibdi.

– Men uning ko'zini o'yib olaman, – debdi yig'lab qarg'a shoqolga. – Boshqa ilojim yo'q!

– Yo'q, qarg'a, bunday qilish yaramaydi. – Sen shunday jazo topki, o'z joningni ham xavf ostiga qo'yma. Yo'qsa, qichqichbaqani o'ldirmoqchi bo'lgan laylakka o'xshab xarob bo'lgaysan.

– Laylakka nima qilgan? Batafsilroq aytib ber-chi. – iltimos qilibdi qarg'a.

–Bo'lmasam, eshit, – debdi shoqol va so'zlab bera boshlabdi:

“Deydilarki, ko'l yoqasida bir laylak yashagan ekan. Bu ko'lda baliqlar to'lib-toshib yotardi. Faqat laylak o'zining keksaligi va majolsizligi uchun ularni tuta olmas edi. Kunlarning birida u ko'l sohilida turgancha yig'lay boshlabdi. Qisqichbaqa u tomonga sudralib kelibdi va debdi:

– Sen nimadan bunchalik g'amginsan?

Laylak esa unga:

– Oh, do'stinam qisqichbaqa. Yaqinda ko'ldagi men oziqlanadigan baliqlar g'oyib bo'ladi. Va menga ochlikdan o'lish xavf solmoqda. Bugun bu yerdan ikki baliqchi o'tdi va ularning biri ikkinchisiga shunday deganini eshitdim: “Bu joyda baliq ko'p”. Ikkinchisi unga javob berdi: “To'g'ri, eski joyda baliq tutishni tugatsak, bu joyga o'tamiz”. Bu joyga o'tib esa ular bizning barcha balig'imizni tutishadi. Mana shu qayg'uli.

Qisqichbaqa zudlik bilan hamma baliqlarga kelayotgan xavfni yetkazibdi. Qo'rqqan baliqlar laylakning oldiga ko'tarilishibdi:

– Bizga sening maslahating kerak, chunki aqllilarga dushmanni fikrini bilish hamisha zararli bo'lgan.

Laylak esa ularga:

– Men sizlarni baliqchilardan himoya qilolmayman, lekin yaxshi maslahat berishim mumkin. Menga suvi va ozuqasi ko'p bir daryo ma'lum. Sizlar o'sha joyda baliqchilardan bexatar bo'lishingiz mumkin.

Baliqlar xursand bo'libdilar va debdilar:

– Qimmatli laylak, sen shu daryoni bizga ko'rsatsang, biz sendan minnatdor bo'lar edik.

Laylak rozi bo'libdi. Faqat u baliqlarni daryoga emas, balandlikka yetaklab boribdi. O'sha yerda ularning hammasini yebdi.

Bir haftadan keyin ko'lda baliq juda oz qolibdi. Qisqichbaqa ham laylakning oldiga kelibdi va debdi:

– Men bu yerda butunlay yolg'iz qoldim. Meni ham do'stlarim – baliqlarning oldiga olib bor.

Laylak qisqichbaqani ham o'sha yo'l bilan olib ketibdi. Biroq qisqichbaqa yo'lda baliqlarning suyaklarini ko'ribdi va bu kimning ishi ekanligini fahmlabdi. Epchillik qilib, ombirlari bilan laylakni bo'g'ibdi, keyin ko'lga qaytib, qolgan baliqlarga hammasi haqida so'zlab beribdi".

Shoqol o'zining hikoyasini tugatib, qarg'aga debdi:

– Men bu tarixdan shuning uchun seni xabardor qildimki, sen bir narsani tushunishing kerak. Sen uni ayyorlik bilan jazolashing kerak.

– Qanday qilib?

– Shaharga bor va biror xotinning taqinchog'ini yulib ol. Shunda hamma sening orqangdan quvadi. Faqat sen sekin uch va ilonning iniga yaqinlash va bu qimmatbaho bezakni ilonning iniga tashla. Odamlar inni kavlashni boshlaydilar va taqinchoqni olish uchun ilonni o'ldirishadi.

Qarg'a shoqol qanday maslahat bergan bo'lsa, barini qilibdi va ilondan xalos bo'libdi.







ВОРОНА И ЗМЕЯ

Сказка из сборника «Сказки народов мира»

В незапамятные времена на вершине горы жила-была ворона. Недалеко от её гнезда находилась нора змеи. Змея только и делала, что поедала вороньи яйца. Огорчённая ворона поделилась с шакалом своей бедой.

– Я ей выколю глаза, – говорила, плача, ворона шакалу. – Другого выхода нет!

– Нет, ворона, так не годится, – сказал шакал. – Ты найди наказание, не подвергая свою жизнь опасности. А то пропадёшь, как аист, который хотел убить рака.

– Что за аист? Расскажи-ка поподробней, – попросила ворона.

Ну что ж, слушай, – сказал шакал и начал рассказывать: – Говорят, жил у озера один аист. Рыбы в этом озере было полным-полно. Только аист уже не мог ее ловить из-за своей старости и немощности. Стоит он однажды у озера и плачет. Подполз к нему рак и говорит:

– Чем ты так огорчён аист?

А аист ему:

– Ох, дружище-рак. Скоро исчезнет вся рыба в озере, которой я питаюсь. И мне грозит голодная смерть. Здесь сегодня проходили два рыбака, и я услышал, как один сказал другому: «В этом месте много рыбы», а другой ему ответил: «Верно. Вот закончим лов на старом месте и перейдём сюда». А перейдя сюда, они переловят всю нашу рыбу. Вот что печально!

Рак немедля рассказал всем рыбам о грозящей опасности. Испугались рыбы и поднялись к аисту:

– Нам нужен твой совет, потому что умным всегда интересно знать и мнение врага.

А аист им:

– Я не могу защитить вас от рыбаков, но могу дать хороший совет. Мне известна одна река, где много воды и пищи. Там вы можете спастись от рыбаков.

Рыбы обрадовались и сказали:

Дорогой аист, если бы ты показал нам эту реку, мы бы были тебе благодарны.

Аист согласился. Только повёл он их не к реке, а на возвышенность. Там и съедал их.

Через неделю рыбы в озере осталось совсем мало. Рак подошёл к аисту и говорит:

– Я остался здесь совсем один. Отведи меня тоже к моим друзьям-рыбам.

Понёс аист рака той же дорогой. Но в пути рак заметил рыбные кости и сразу смекнул, чьих рук это дело. Изловчился он, придушил аиста клешнями, а потом вернулся в озеро и рассказал оставшимся рыбам обо всём.

Закончил шакал свой рассказ и говорит вороне:

- Я поведал тебе эту историю для того, чтобы ты поняла одну вещь. Ты должна наказать змею хитростью.

- Какой же?

- Пойди в город и сорви у какой-нибудь женщины украшение. Тогда все погонятся за тобой. Только ты лети медленно и, приблизившись к норе змеи, брось туда эту драгоценность. Люди начнут раскапывать нору и убьют змею, чтобы достать украшение.

Ворона сделала всё так, как посоветовал ей шакал, и освободилась от змеи.

Так ум победил силу.





UCH KUYOV VA ULARNING SEHRLI SOVG'ALARI

Uzoq zamonlarda qachonligini so'ramang, bir sulton yashab o'tgan ekan. Uning go'zal bir qizi bor ekan. Sultonning uyiga ko'plab sovchi-kuyovlar kelar ekan. Lekin u kelgan har bir kuyovdan qizi uchun juda katta miqdorda pul va boshqa boyliklar so'rar ekan-ki, dunyoda hamma ham bunday boyliklarga ega bo'lavermaydi.

Nihoyat, sultonning shartlarini bajara oladigan uchta kuyov topilibdi. Ulardan biri uzoq bir saltanatda yashar ekan. Bu yigit barcha boyliklarini yig'ib, sulton oldiga – saroyga yo'l olibdi. U yo'lda yig'ilib turgan bir to'da odamlarni ko'ribdi. Yaqinroq borib, yigit ularning biridan so'rabdi:

– Bu yerda nimalar bo'layapti?

– Bu yerda sehrlı ko'zgu sotilyapti. Uning yordamida Yer yuzidagi istalgan joyni ko'rish va u yerda nima bo'layotganini bilish mumkin ekan, – deb javob beribdilar unga.

Yigit sehrlı ko'zguni sotib olibdi. Buning uchun sultonga olib borayotgan butun boyligini sarf qilibdi. Sotuvchi uni, bu ko'zgu uchun sulton, albatta, qizini senga beradi, deb ishontiribdi.

Ayni shu vaqtda dunyoning boshqa bir burchagida yana bir yigit sulton shartiga mos tushuvchi mablag'ni yig'ib, u ham sultonga kuyov bo'lish uchun yo'lga tushibdi. Yo'lda bu yigit ham hamma pulini uchar gilamga almashtirib olibdi. Chunki yigit ushbu uchar gilam sultonga olib borayotgan sovg'asidan qimmatroq, deb ishonar ekan.

Nihoyat, uchinchi kuyov ham sovg'a-salomlar bilan go'zal malika oldiga jo'nabdi. Bu yigit esa bor boyligiga sehrlı limon sotib olibdi. Limonni bera turib sotuvchi yigitga aytibdi:

– Bu sehrlı limon, Yer yuzida mavjud bo'lgan jamiki kasalliklarni tuzatadi.

Uchala kuyov ham sultonga tegishli bo'lgan bir shaharning mehmonxonasida uchrashib, tanishibdilar.

– Men sulton qizining qo'lini so'ragani keldim, – debdi birinchi yigit.

– Men ham shu sabab bilan bu yerga keldim, – debdi ikkinchisi.

– Men ham sulton qiziga uylanmoqchiman, – debdi uchinchisi. – Lekin sultonning bittagina qizi bor. Biz esa uch kishimiz. Qanday yo'l tutamiz?

Oqko'ngil yigitlar o'ylanib qolishibdi. Birozdan keyin sehrlı ko'zgu egasi shunday debdi:

– Kelinglar, yaxshisi mening sehrli ko‘zguymga qaraylik, malikaning nima qilayotganligini bilib olamiz.

Ko‘zgu sulton qizining og‘ir betob ekanligini ko‘rsatibdi. U o‘lim to‘shagida emish. Tuzalmas kasallikka chalingan ekan.

Shunda sehrli uchar gilam egasi bo‘lgan yigit debdi:

– Mening uchar gilamimda tezda yetib boramiz.

Ular saroyga yetib borganlarida uchinchi kuyov shunday debdi:

– Menda dunyodagi hamma kasalliklarga malham bo‘ladigan limon bor. Uni siqib, sharbatini qizga ichirish lozim.

Kuyov yigitlar saroyga kirishsa, sulton o‘z taxtida qizi uchun kuyunib o‘tirgan ekan.

– Qanday maqsadda keldinglar? – qayg‘urgan holda so‘rabdi ulardan sulton. – Mening qizimni so‘rab kelgan bo‘lsanglar, orqaga qaytaveringlar, qizim o‘lim to‘shagida.

– Biz sizning qizingizni davolashimiz mumkin. Uni ko‘rishga ruxsat bering, – debdi ular.

Sulton yigitlarni qizining haramiga olib boribdi. Ular qizga limon sharbatini berishibdi. Tez orada qiz sog‘ayibdi.

Endi, sultonning qizi qaysi bir yigitning qaylig‘i bo‘lishi kerakligi muammosi paydo bo‘libdi.

– Mening sehrli oynamsiz qizning og‘ir betobligini bilmas edik, – debdi birinchi yigit.

– Agar mening uchar gilamim bo‘lmaganda o‘z vaqtida malikaga yordamga kela olmasdik, – debdi ikkinchi yigit.

– Mening dorivor limonim bo‘lmaganida malika olamdan o‘tgan bo‘lardi, – eslatibdi uchinchi yigit.

Ular o‘zaro bitimga kela olmay, mamlakatning bosh qozisiga murojaat qilibdilar:

– Donishmand, muhtaram qozi, – debdi ular, – qaysi birimiz malikaning qaylig‘i bo‘lishga haqlimiz?

Qozi uchala yigitning ham fikrini eshitibdi. Butun kun va tun bo‘yi o‘ylab, ikkinchi kuni shunday javob beribdi:

– Haqiqat yuzasidan kelinning qaylig‘i sifatida limon sotib olgan yigit tan olinishi lozim. Negaki, yigit limonni sotib olar ekan, u faqat ma‘lum bir kasallikni tuzatish haqida o‘ylagan, odamlarga yordam bersam degan. Oyna va uchar gilam esa boshqa maqsadlarda ham sotib olingan.

Yigitlar qozining xulosasi va adolatli qaroridan rozi bo‘lishibdi. Ular bir-birlari bilan do‘st bo‘lishga ahd qilishibdi. Birinchi va ikkinchi yigit uchinchi yigitning nikoh to‘yida eng hurmatli va aziz mehmon sifatida ishtirok etibdilar.









Сказка о трех женихах и волшебном зеркале

Давным-давно, и не спрашивайте когда, жил-был султан. У него была прекрасная дочь. Много сватов приезжали к султану. Но он просил за свою дочь такое количество денег и драгоценностей, что не каждый в мире обладал таким богатством.

Наконец нашлись три жениха, которые могли выполнить условия султана. Один из них жил в далёком царстве. Собрал этот юноша всё своё богатство и отправился к султану во дворец. В пути он увидел большую толпу людей. Приблизившись, юноша спросил у одного из них:

– Что здесь случилось?

– Здесь продаётся волшебное зеркало. С его помощью можно увидеть любое желаемое место на земле и узнать, что там происходит, – ответили ему.

Купил юноша волшебное зеркало. Правда за него пришлось отдать всё своё богатство, которое он вёз султану. Продавец уверил его, что султан за такой подарок обязательно выдает за него свою дочь.

В то же самое время на другом конце земли другой юноша собрал требуемые дары и отправился к султану. Но в пути он обменял все свои сбережения на ковёр-самолёт. Юноша был уверен, что волшебный ковёр стоит дороже, чем его дары, и дочь султана достанется только ему.

И, наконец, третий жених тоже с дарами отправился за красавицей. Так случилось, что этот юноша купил волшебный лимон, заплатив за него всё то, что вёз султану. Отдавая ему лимон, продавец сказал:

Этот волшебный цитрус лечит все болезни, которые есть на земле.

Все три жениха встретились и познакомились в гостинице одного из городов страны султана.

Я приехал просить руки дочери султана, – сказал первый юноша.

Я тоже прибыл сюда по этой причине, – сказал второй.

И я хочу жениться на дочери султана, – сказал третий. – Но дочь султана одна, а нас трое. Как нам поступить?

Задумались благородные юноши. Потом владелец волшебного зеркала сказал:

– Давайте лучше взглянем в моё волшебное зеркало и узнаем, что делает принцесса.

Зеркало показало тяжелобольную дочь султана, лежащую на предсмертном одре. Болезнь её была неизлечима.

Тогда юноша с волшебным ковром сказал:

– На моём ковре-самолёте мы быстро доберёмся до дворца. Может быть, успеем помочь ей чем-то.

Когда они достигли дворца, третий жених сказал:

– У меня есть такой лимон, который вылечит все болезни, какие есть на свете. Надо выжать из него сок и дать девушке выпить.

Вошли юноши-женихи во дворец и видят – сидит султан на троне и горюет.

– Что вас привело сюда? – печально спрашивает их султан. – Если приехали сватать мою дочь, возвращайтесь. Она лежит при смерти.

– Мы можем вылечить твою дочь. Дозволь увидеть её, господин, – сказали они.

Проводил султан юношей в покои дочери. Дали они ей сок лимона, и девушка вскоре выздоровела.

Теперь сваты-юноши не могли решить, за кого из них должна выйти замуж дочь султана.

– Без моего волшебного зеркала мы бы не узнали, что девушка больна, – сказал первый юноша.

– Если бы не мой ковёр-самолёт, мы бы не смогли вовремя попасть к принцессе, – сказал второй парень.

– Не будь у меня целебного лимона, умерла бы девушка, – напомнил им третий.

Не придя к согласию, они решили пойти к главному судье страны.

– Скажи, мудрец, – сказали они, – кто из нас должен стать женихом принцессы?

Судья выслушал каждого, потом целый день и ночь думал. На второй день ответил так:

– Женихом невесты по праву должен стать владелец лимона. Потому что, покупая этот лимон, юноша думал только о лечении болезни, о помощи людям в их недуге. А зеркало и ковёр-самолёт были куплены и в других целях.

Благородные юноши согласились с решением и доводами судьи. Они заверили друг друга, что останутся друзьями. Два первых парня были самыми дорогими и почётными гостями на свадьбе своего третьего друга.





KELINCHAK VA BAXT QUSHI

(TUKMUN VALQ FRIAGI)

Bir uyda uch kelinchak bor ekan. Ular ahil va to'kinlikda yashar ekanlar. Bir kuni Baxt qushi kelibdi va katta kelinning oldiga qo'nib debdi:

– Azizim, men olis yurtlarga uchib ketyapman. Tila, nimani istaysan.

– Yaxshi, – debdi katta kelin. – Menga behisob boylik ber, ana undan keyin xohlagan to'rt tomoningga uchib ketaverishing mumkin.

Qush uning istagini ado etibdi va o'rtancha kelinning oldiga uchib kelib debdi:

– Azizim, men sizlarni tark etaman. Xayrlashish oldidan tila tilagingni. Hammasini ado etaman.

– Xo'p mayli, meni katta mol-dunyo bilan ta'min et va xohlagan tomoningga uchib ketaver, – javob beribdi u.

O'rtancha kelinning ham istagi ado etilibdi.

Qush kichik kelin tomonga yo'nalibdi.

– Azizim, sening o'lkang bilan vidolashish paytim keldi. Biroq men oldin sening iltimosingni ado etishni istayman. Balkim sen oltin, boshqa qimmatbaho narsalar istarsan? Tila, uyalmagin.

– Sen bizni tark etayotganingdan juda afsusdaman, – g'amgin javob beribdi u. – Menga boylik ham, qimmatbaho narsalar ham kerak emas. Agar qo'lingdan kelsa, menga sog'liq va tinch hayot ber. Qolganini o'z mehnatimiz bilan topamiz, – javob beribdi kichik kelin.

Baxt qushi o'ylanib qolibdi va unga debdi:

– Agar sening istaging shu bilan yakunlanadigan bo'lsa, unda mening uchib ketishimning hojati yo'q. Aftidan, sening uyingda bir umrga qolishimga to'g'ri keladi.

Katta va o'rtancha kelinga Baxt qushi bergan boylik vaqt o'tishi bilan tamom bo'libdi. Ular tez-tez yordam so'rab kichik kelinga murojaat qilib turishardi. Mehribon kichik kelin hech qachon yordam berishni rad etmas edi.







НЕВЕСТКА И ПТИЦА СЧАСТЬЯ

(ТУРКМЕНСКАЯ НАРОДНАЯ СКАЗКА)

В одном доме было три невестки. Они жили дружно и в достатке. Однажды прилетела птица Счастья, села около старшей невестки и сказала:

– Милая, я улетаю в далёкие края. Проси, что желаешь.

– Хорошо, – сказала старшая невестка. – Дай мне несметное богатство и можешь лететь на все четыре стороны.

Исполнила птица её желание и подлетела к средней невестке и говорит:

– Дорогая, я покидаю вас. На прощание проси, что хочешь. Всё исполню.

– Ну ладно, обеспечь меня большим состоянием и можешь улетать, куда хочешь, – ответила она.

Желание второй невестки тоже исполнилось.

Птица направилась к младшей невестке.

– Дорогая моя! Настала мне пора расстаться с твоим краем. Но сначала я хочу исполнить твою просьбу. Может, ты хочешь золота, других драгоценностей? Проси, не стесняйся.

– Очень жаль, что ты покидаешь нас, – грустно ответила она. – Не нужно мне ни богатств, ни драгоценностей. Если сможешь, дай мне здоровья и мирной жизни. Остальное мы добудем своим трудом, – ответила младшая невестка.

Подумала птица Счастья и говорит ей:

– Если только в этом заключается твоё желание, то мне и улетать не надо. Видно, мне придётся остаться в твоём доме навсегда.

У старшей и средней невесток богатства, данные птицей Счастья, со временем закончились. Им часто приходилось обращаться за помощью к младшей невестке. Добрая младшая невестка никогда в помощи не отказывала.





NIMA UCHUN DENGIZ SUVI SHO‘R

(NITOI XALQ ERTAGI)

Uzoq zamonlarda ikki aka-uka yashab o‘tgan ekan. Kichik uka onasi bilan qishloqda yashasa, katta aka esa amaldor bo‘lib, shaharda o‘ziga to‘q va farovon yashar ekan. Lekin katta aka biron marta ham onasi va ukasidan xabar olmabdi. Hatto ular haqida o‘ylamas ham ekan.

Kichik uka ertalabdan kechgacha dalada mehnat qilib, onasi haqida qayg‘urar ekan. Bir yil juda noqulay kelib, hosil bitmabdi, shunda onasi kichik o‘g‘lini chaqirib, oxirgi pullarini unga berib debdi:

– Mana bu pullarga sovg‘a olgin-da, shaharga bor. Akangni top, uni tug‘ilgan kuni bilan tabrikla va meni ziyorat qilishini ayt.

– Onajon, nimalar deyapsiz, axir, u katta amaldor bo‘lib ketgan, bizni allaqachon unutib yuborgan. Meni tanimasa ham kerak.

– Unday qilma, bir borib kel, – o‘z so‘zidan qaytmabdi ona. – Mening yuborganimni ayt. Tug‘gan onasini unutishi mumkin emas. Bir yo‘la undan yegulik narsalar ham olib kelarsan. Bo‘lmasa ochlikdan o‘lib qolishimiz mumkin.

Yigit onasini qiynab o‘tirmasdan shaharga – akasining yoniga yo‘l olibdi. Shaharga kelib bilsaki, akasi shu shaharning hokimi ekan. Uni tug‘ilgan kuni bilan tabriklash uchun uyiga bashang kiyingan aslzodalar kelar edi.

Uka ham ular qatori akasining uyiga qadam qo‘yibdi. Uni hech kim to‘xtatmabdi. Hamma uni xo‘jayinning yangi xizmatkori bo‘lsa kerak, deb o‘ylardi. Akasi esa bu paytda bayramona, shohona kiyingan holda koshona bo‘ylab gerdayib yurar va tabriklarni qabul qilar edi. Uning yoniga kichik ukasi yaqinlashib kelibdi, lekin akasi uni tanimabdi. Shunda uka akasiga onasi haqida eslatibdi. Aka o‘zini xuddi hayajonlanayotganday qilib ko‘rsatib, debdi:

– Ukajon, sen o‘z vaqtida kelding. Men seni va onamni juda sog‘ingan edim, hatto o‘zimni qo‘yishga joy ham topolmay qoldim. Ishim shunchalik ko‘pki, hatto seni va onamni ziyorat qilib kelishga ozgina vaqt ham ajrata olmayman.

Shu zahotiy oq xizmatkorini chaqirib, mehmonlarga bildirmasdan, ukasini oshxonada ushlab turishni buyuribdi. Bu paytda oshxonada shaharning eng yaxshi oshpazlari xizmat qilardilar. Ular katta oshxona bo'ylab chopib yurishar, xo'jayin va uning mehmonlari uchun ovqat tayyorlar edilar. Ular ukaning yonidan bir-biridan shirin mevalar, qovurilgan parranda va baliqlarni, boshqa lazzatli ovqatlarni olib o'tar edilar, u bunday taomlarni umrida ko'rmagan edi.

Uka oshpazlar bilan ovqatlandi, ulardan biri unga nilufar bargiga o'ralgan katta bir suyakni berib debdi:

– Bu suyak senga, yo'lingga, unda ozgina go'shti ham bor.

Katta akasini ko'ra olmasdan, u bilan xayrlasha olmay, uka shahardan o'z uyi tomon jo'nab ketibdi.

U shahardan chiqqanda qorong'i tushib qolgan edi. Qadamini tezlatib, uyiga tezroq yetib borishga harakat qilibdi. Shu payt kimningdir ovozi eshilibdi:

– Oh, qanday yoqimli hid taralyapti. Qandaydir shirin bir narsani olib ketyapsan shekilli, o'g'lim.

Yigit orqasiga o'g'irilib, yeyish mumkin bo'lgan ildizlarni yig'ib turgan bir kampirni ko'ribdi.

– Ha, buvi, – javob beribdi u. – Onamga bir bo'lak suyak olib borayapman.

– Uni menga beraqol, o'g'lim, men juda ochman!

– Mening onam ham juda och o'tiribdi, – tushuntirishga harakat qilibdi yigit.

– Ozgina beraqol! – yalinishga tushibdi kampir.

Yigit uning iltimosini qaytara olmay, ozgina go'sht beribdi. Kampir go'shtni yeb, yigitga minnatdorchilik bildirib debdi:

– Bu yerga yaqin joyda bir g'or bor. Unda yetti qiz yashaydi. Ular ham juda ochiqqan, ularga qolgan suyagingni ber. Savob bo'ladi.

– Bunday qilolmayman. Qolganini onamga olib borishim kerak.

– Nima ham derdim, agar ular bugun biron nima yeb olishmasa, hammasi halok bo'ladi, – debdi kampir og'ir xo'rsingan holda.

Yigit rahmdil bo'lishi bilan birga, muruvvatli ham ekan. U o'sha g'orni topib, yetti qizni uchratibdi. Xontaxta ustiga suyakni qo'yib, ketishga chog'lanayotganida, qizlarning eng kattasi ovoz chiqarib unga debdi:

– Shoshmay tur, yaxshi yigit. Sen rahmdil va muruvvatli inson ekansan. Biz senga o'z minnatdorchiligimizni bildirmoqchimiz. Bu yerda juda ko'p boyliklar bor. Tanlab ol.

Yigit qarasa, g'or ichi qimmatbaho toshlar, dur, marvarid va gavharlar bilan to'lgan ekan. “Bu toshlardan nima ham naf olardim? – o'ylabdi u. – Ular qorningni to'ydirmaydi, mana bu suyakdek ochlikning oldini ola bilmaydi”. Yigit hech nima olmabdi, lekin qizlar uning biron nima olib ketishini talab qilib turib olishibdi. Shunda yigit boyliklar bilan to'la g'orni yana bir sinchiklab qarab chiqib, dastakka o'xshagan bir toshchani tanlab olibdi. “Uyda havonchani dastagi yo'qolgan edi”, – o'ylabdi u. Toshchani cho'ntagiga solib, g'ordan chiqibdi. Kampir uni shu yerda kutib turgan ekan.

– Toshchani tanlaganing yaxshi bo'ldi, endi och qolmaysan. U oddiy emas, sehrli tosh.

Kampir yigitga ushbu toshdan foydalanish sirini aytib beribdi.

Yigit uyga shoshilibdi. Onasiga boshidan o'tgan hamma voqealarni so'zlab berib, sehrli tosh kuchini sinab ko'rmoqchi bo'libdi. Uni xontaxtaga yetti marta ishqalab turib debdi:

– Tuz ber, tuz ber!

Shu ondayoq oq tuz paydo bo'lib, xontaxta ustiga to'kila boshlabdi. Yigit toshchani yetti marta urib:

– Yetar, to‘xta, – degan ekan, tuz to‘kilishdan to‘xtabdi.

Tez orada sehrli toshcha haqidagi xabar hamma yoqqa tarqalibdi. Bu xabar katta aka qulog‘iga ham yetib boribdi. U darhol vaqt topib, qishloqqa, onasining yoniga kelibdi. Uka esa bu paytda dalada edi.

– Mana, oyijon, sizni ko‘rishga keldim, – debdi katta o‘g‘il. – Faqat bir yo‘la sehrli toshchani ham ko‘rib ketsam, deyman. U rostdan ham sehrlimi?

Ona katta o‘g‘ilini ko‘rib, juda quvonibdi, tezda unga sehrli toshchani ham keltirib berib debdi:

– Ha, o‘g‘lim. U haqiqatan ham sehrli. Uni xontaxtaga yetti marta ishqalasang va “Tuz ber, tuz ber!” desang, tuz o‘z-o‘zidan quyilib kelaveradi.

Katta o‘g‘ilning ko‘zlari qinidan chiqqudek bo‘lib, onasiga debdi:

– Men yashaydigan uyezdda tuz kam. Men bu toshchani bir kunga olib, ertagayoq qaytarib olib kelaman. Tuzning sotilgan haqini ham keltirib beraman.

Shunday deb, xasis uyezd boshlig‘i sehrli toshchani olib, onasining javobini ham kutmasdan, otni choptirib ketibdi.

Uyezd boshlig‘i katta kema sotib olibdi, tuz kam bo‘lgan o‘lkalarga borib, uni sotib, boyib ketishga qaror qilibdi. Katta dengizga chiqqan zahoti ochko‘z katta o‘g‘il palubaning o‘rtasiga o‘tirib olib, toshchani kema yuzasiga yetti marta urib:

- Tuz ber, tuz ber! – deb baqiribdi.

Tuz xuddi qorli gilam kabi paluba bo‘ylab yoyilib ko‘paya boshlabdi. Uyezd boshlig‘i tobora ko‘payib borayotgan tuzga sehrlangandek boqib, quvonar edi. Kemaning barcha tryum va palubasining tuz bilan to‘lib-toshganini ham payqamay qolibdi. O‘rnidan turmoqchi bo‘lib, beligacha kelib qolgan tuzdan qo‘zg‘ala olmay qolibdi. O‘ziga kelganida kech bo‘lgan edi. Chunki toshchadan oqib tushayotgan tuzni qanday to‘xtatishni onasidan so‘ramagan edi. Hayajonlangan va tashvishga tushgan uyezd boshlig‘i tuz qatlamlari orasidan sehrli toshchani topa olmasdi.

– To‘xta! Endi sochilma! – baqirardi u.

Tuz esa hamon sochilishda davom etardi. Matroslar kemani tashlab ketishgan, faqat katta o‘g‘ilning o‘zi qolgan, baqirar, lekin o‘rnidan tura olmasdi. Kema shuncha og‘irlikni ko‘tara olmasdan cho‘ka boshlabdi. Kema bilan birga uyezd boshlig‘i ham cho‘kib ketibdi. Sehrli toshcha esa tuz chiqarishda davom etardi. Aytishlaricha, sehrli tosh hozirda ham to‘xtovsiz tuz chiqarib turar emish. Shuning uchun ham dengiz suvi doimo sho‘r bo‘lar ekan.





ПОЧЕМУ ВОДА В МОРЕ СОЛЁНАЯ

(КИТАЙСКАЯ НАРОДНАЯ СКАЗКА)

В далёкие времена жили-были два брата. Младший брат с матерью жил в деревне. Старший же был чиновником в городе, жил в роскоши и достатке. Но ни разу не навещал мать и младшего брата. И даже думать о них забыл.

Младший брат с утра до вечера трудился в поле, заботился о матери. Однажды, когда наступил неурожайный год, мать позвала младшего сына, дала ему последние деньги и сказала:

– Купи на эти деньги подарок, поди в город и поздравь брата с днём рождения и скажи ему, чтобы наведал свою мать.

– Что вы, матушка, брат стал большим чиновником и давно о нас забыл. Он меня не узнает.

– Нет, ты всё-таки пойди, – настаивала мать. – Скажи, что я послала. Уж родную мать нельзя забывать. Заодно принесёшь от него что-нибудь на пропитание, а то с голоду погрём.

Не стал юноша перечить матери, пошёл в город к брату. Придя в город, он узнал, что старший брат его стал уже начальником уезда. В его дом пришло много богато разодетых чиновников, чтобы поздравить с днём рождения.

Младший брат тоже вошёл в дом старшего брата. Никто его не остановил. Все подумали, что это новый слуга хозяина. А старший брат, одетый в богатую праздничную одежду, важно ходит по залу и принимает поздравления. Подошёл к нему и младший брат, но старший брат не узнал его. Тогда он напомнил ему о матери. Старший брат сделав вид, что очень взволнован, сказал:

– Ты, брат, приехал очень кстати. Я так соскучился по тебе и матери, что места себе не нахожу. Я так занят работой, что не могу выкроить время поехать и проведать мать и тебя.

И тут же подозвал к себе слугу и поручил ему незаметно для гостей вывести младшего брата из зала и держать его в кухне. А в кухне сегодня работали самые лучшие повара города. Все они бегали по большой кухне, готовили яства для хозяина и его гостей. Мимо

младшего брата слуги проносили сочные фрукты, жареную дичь, рыбу, всякие другие вкусные яства, которых он никогда в жизни не видел.

Поел младший брат вместе с поварами, а один из них дал ему большой кусок кости, завёрнутый в лист лилии, сказав:

– Это тебе в дорогу, там есть немного мяса.

Так и не увидев больше старшего брата и не попрощавшись с ним, младший брат с костью за пазухой отправился из города к себе домой.

Когда он вышел из города, уже стало темнеть. Младший брат ускорил шаг, чтобы быстрее добраться до дома. Вдруг он услышал чьё-то голос:

– Ох, как вкусно пахнет, наверное, несёшь что-нибудь вкусненькое, сынок?

Оглянулся парень и увидел старушку, собиравшую съедобные корни.

– Да, бабушка, – ответил он. – Несу матери кусок кости.

– Дай мне его, я очень голодна, сынок!

– Моя матушка тоже очень голодна. – попытался объяснить юноша старушке.

– Ну хоть немного! – взмолилась старушка.

Юноша не смог отказать и дал ей немного мяса. Поела старушка мяса, поблагодарила парня и говорит ему:

– Тут недалеко есть горная пещера. В ней живут семь девушек. Они очень голодны, отдай им оставшуюся кость. Это будет очень доброе дело.

– Не могу, я должен это маме отнести.

– Очень жаль. Если сегодня они не поедят, то все умрут, – сказала старушка, тяжело вздыхая.

Добрый и щедрый был юноша. Нашёл он ту самую пещеру, увидел семерых девушек. Положил им на стол кусок кости и стал уходить. Тут самая старшая из девушек окликнула его и сказала:

– Остановись, прекрасный юноша! Ты оказался очень добрым и щедрым человеком. Мы хотим отблагодарить тебя. Здесь много драгоценностей. Выбирай.

Смотрит юноша, вся пещера усыпана драгоценными камнями, жемчугами и бриллиантами. «Какая мне польза от камней? – подумал он. – От них сыт не будешь, ими не заглушишь голод, как от этой кости». Ничего не взял юноша, но девушки настояли на том, чтобы он что-нибудь выбрал. Тогда юноша осмотрел внимательно всю сокровищницу и наконец выбрал камень, походивший на пестик. «Как раз дома у ступки потерялся пестик», – подумал он. Положил он камень в карман и вышел из пещеры. А там его та самая старушка поджидает.

– Вот и хорошо, сынок, теперь голодным не останешься. Это не простой камень, он с секретом.

И рассказала юноше, как этим секретом пользоваться.

Поспешил парень домой. Рассказал матери обо всём и потом решил испытать силу каменного пестика. Потёр он пестик о стол семь раз и сказал:

– Дай соль, дай соль!

Тут же на пестике появилась белая соль и стала сыпаться на стол. Ударил парень пестиком семь раз и сказал:

– Хватит, стой!

Соль перестала сыпаться. Вскоре молва о волшебном пестике разнеслась повсюду. Дошла эта весть и до старшего брата. Сразу он нашёл время и приехал в деревню домой к матери. А младший брат был в это время на поле.

– Вот, мама, я нашёл время повидать вас, – сказал старший сын. – Только я хочу посмотреть заодно и на ваш пестик. Может, он и вправду волшебный?

Мать так обрадовалась, увидев старшего сына, что на радостях сразу вынесла ему волшебный пестик и сказала:

– Да, да, сынок. Он поистине волшебный. Потрёшь его о стол семь раз и скажешь: «Дай соль, дай соль!», соль и посыплется.

Вытаращил глаза на пестик старший сын и говорит матери:

– В моём уезде не хватает соли. Я возьму у тебя пестик на один день и завтра же принесу обратно. И деньги, вырученные от продажи соли, тебе принесу.

Сказал это скупой уездный начальник, взял пестик и, не дожидаясь её ответа, сел на коня и умчался.

Купил уездный начальник большой корабль и решил разбогатеть, продавая соль в тех краях, где её очень не хватает. Как только вышел корабль в море, уселся жадный старший сын посередине палубы, ударил об пол пестиком семь раз:

– Дай соль, дай соль! – закричал он.

Соль, как снежный ковёр, стала устилать палубу. Уездный начальник завороженно смотрел на прибывающую соль и радовался. Он даже не заметил, как солью заполнился весь трюм и палуба корабля. Опомнился только, когда хотел встать, но соль уже была ему по пояс и не отпускала его. А как остановить пестик он не спросил у матери. Заволновался, забеспокоился уездный начальник, ищет под слоем соли пестик, найти не может.

– Остановись! Не сысься! – кричит чиновник.

А соль всё прибывает. Уже матросы покинули корабль. Он один остался, кричит, подняться не может. От тяжести корабль пошёл на дно. Утонул и уездный начальник. А пестик всё сыпал и сыпал соль. Говорят, и сейчас не останавливается. Вот поэтому вода в море солёная.





OTA VASIYATI

(O'ZBEK ILQ'RLIGI)

Bir kishining uch o'g'li bor ekan. Vafotidan oldin katta o'g'lini oldiga chaqirib debdi:

– Mening o'limim yaqinlashyapti. Menga ayt-chi, o'limimdan so'ng qabrimni uch kecha qo'riqlaysanmi?

– Yo'q, ota, men qo'riqlay olmayman, – debdi katta o'g'il.

Ota o'rtancha o'g'lini ham chaqirib, unga xuddi shu savolni beribdi. O'rtancha o'g'il ham xuddi akasi singari: "Yo'q, men qo'riqlay olmayman", – degan javobni beribdi.

Ota chuqur qayg'uga botib, eng kenja – uchinchi o'g'lini huzuriga chaqirib debdi:

– Men o'lim yoqasidaman. Vafotimdan keyin mening qabrimni ketma-ket uch kecha qo'riqlaysanmi?

– Ota, qabringizni uch kecha emas, balki ketma-ket yuz kecha desangiz ham qo'riqlashga tayyorman, – deb javob beribdi kichik o'g'il.

Ota bu javobdan tinchlanib, tez orada olamdan o'tibdi. Ota qabrini qo'riqlash uchun birinchi kechada kichik o'g'il u yerga yo'l olibdi. Ota qabri oldida uxlamasdan o'tirib chiqibdi. To'satdan yarim tunda osmondan yarog'-aslahali, yasatilgan bir oq ot qabr tepasiga kelib tushibdi. U qabrni uch marta aylanib o'tib, boshini egibdi. Kichik o'g'il otni ushlab olib debdi:

– Sen kimning otisan, nima uchun otamning qabrini uch marta aylanib o'tding?

Ot javob beribdi:

– Ilgari men sening otangning oti edim. Men hozir unga ta'zim qilish va u bilan vidolashish uchun keldim. Senga esa mana bu yolimning tukini beraman. Men kerak bo'lganimda uni yoqib yubor va men huzuringda hozir bo'laman.

Ikkinchi kecha osmondan jiyron ot kelib tushibdi. U ham xuddi oq ot kabi qabrni uch marta aylanib o'tib, boshini egibdi. Kenja o'g'il otni ushlab olib so'rabdi.

– Sen kimning otisan, nima uchun otamning qabrini uch marta aylanib o'tding?

– Men sening otangning oti edim. Unga sodiqlik bilan halol xizmat qildim. Endi esa u qazo qilibdi, men u bilan xayrlashishga keldim. – deb javob beribdi jiyron ot va o'z yolidan bir tolasini olib, davom etibdi: – Ma, ol! Mening yordamim zarur bo'lganida uni yoqsang, men sening oldingga kelaman.

Shunday deb, jiyron ot ham g'oyib bo'libdi. Uchinchi kechada kenja o'g'il qora otni ko'ribdi. U eng qimmatbaho yarog'-aslaha va ot anjomlari bilan yasatilgan ekan. Qora ot qabrni uch marta aylanib, ketayotgan chog'ida o'g'il unga yetib olib, shunday debdi:

– Sen nima uchun otamning qabrini uch marta aylanib o'tding?

– Men sening otangga tegishli edim. U xohlagan paytida menga minib, istagan joyiga borar edi. Endi esa, u vafot etibdi. Men unga ta'zim qilib, xayrlashish uchun keldim. Sen esa, mening yolimdan bir tolasini olgin-da, kerak bo'lganimda uni yoqib yubor va men huzuringda bo'laman, – deb qora ot ham ko'zdan g'oyib bo'libdi.

To'rtinchi kecha ham yigit otasi qabrini qo'riqlash uchun boribdi. Lekin bu kecha hech kim kelmabdi. Yigit otasining vasiyatini bajarganini tushunibdi.

Otalarining marosimlari o'tib bo'lganidan keyin aka-ukalar padarlarining mulkini bo'lib olishibdi. Ikki katta akalar otalaridan qolgan mulklarni tezda sarflab, ukalarining mol-mulkiga ham sherik bo'lib, uni ham tugatibdilar. Ular qishloq mollarini boqish uchun yollanibdilar. Lekin katta akalar bu yerda ham g'irromlik qilishibdi. Buzoq va qo'ylarni o'g'irlab, pinhona sotar ekanlar.

Qishloq oqsoqollari o'g'ri aka-ukalarni haydab chiqarishibdi. Kichik uka esa, uyalganidan o'zi qishloqdan chiqib ketibdi.

Uchalasi boshqa shaharga borib, yana mol boqmoqchi bo'lishibdi. Kichik uka mollarni shahar tashqarisida boqar, akalar esa, kun bo'yi dam olar ekan. Bekorchilikdan zerikkan akalar kunlardan bir kuni shaharga chiqib, odamlarni ko'rmoqchi bo'lishibdi, shu bilan birga, o'zlarini ko'rsatish niyatlari ham bor ekan. Shahardagi saroy maydonida hisobsiz odam to'planib turgan emish. Ma'lum bo'lishicha, shoh saroy devorining eng yuqori qismidan pastga tushadigan qirqa tik zinali ko'shk qurdirgan ekan. Jarchilar esa, shoh farmonini baqirib e'lon qilar edilar:

– Kimki qirq zinali ko'shka otda yoki tuyada, yoki eshakda yetib kelsa, qizimning qo'lidan suv to'la piyolani olib, uni ichsa va uning qo'lidan uzukni yechib olsa, u qizimga uylanadi. To'y qirq kecha-yu, qirq kunduz davom etadi.

Aka-ukalar saroy maydoniga otda, tuyada, eshakda kelayotgan yigitlarni ko'ribdilar. Kechqurungacha ularning zinadan yiqilib, mayib-majruh bo'lishayotganini tomosha qilibdilar. Ularning hech biri hatto o'nta zinani ham bosib o'ta olmabdilar.

Aka-ukalar shahardan qaytib, barcha ko'rganlarini kichik ukalariga so'zlab beribdilar. Saroy maydonidagi ko'shkni, tik zinalar, suvli piyola, malikaning uzugi, shoh shartlari – barchasini oqizmay-tomizmay yetkazibdilar.

– Lekin hech kim o'ntadan ortiq zinani egallay olmadi, hammasi yiqilib, lat yeyishdi, – deb qo'shib qo'yibdi ular.

– Yaxshi, – debdi kichik uka, – ertaga mollarga sizlar qarab turasizlar, men esa shaharga borib, u yerda nima bo'layotganini ko'rib kelaman.

– Qo'ysang-chi, nimalar deyapsan, – hayajonga tushibdi akalar. – Biz sensiz ochdan o'lamiz. Akalar uning borishiga yo'l qo'yishmabdi, o'zlari esa ertalabdan shaharga yo'l olishibdi.

Tushgacha kichik uka mol boqibdi, keyin qo'ylarni tol butalari orasiga haydab, oq otning soch tolasini olib, uni yoqibdi. Shu zahoti oq ot barcha yarog'-aslaha, boy yasatilgan egar-jabduqlari bilan paydo bo'libdi. Yigit kiyimlarini almashtirib, yarog'-aslahalarini kiyibdi, otga o'tirib, shoh saroyiga yo'l olibdi. Saroy devoriga yaqin kelib, qichqiribdi:

– Chuh, otim! Meni manzilinga yetkaz!

Ot bir tisanib olib, zina bo'ylab tepaga uchib chiqibdi. Ko'shka ikki zina yetmasdan to'xtab qolibdi. To'plangan xalq hayqirgan holda yigitni qo'llab-quvvatlab turardi:

Qani yigit, chekinma, harakat qil! Otga qamchi ur, o'zgina qoldi! E-Eh!

Ot ohistagina yerga tushibdi. Sakragan holda kenja o'g'ilni shahardan olib chiqib ketibdi. Yigit o'z otariga qaytib kelib, qayta kiyinibdi va uxlashga yotibdi. Kechqurun akalari shahardan qaytib, unga bo'lgan voqeani gapirib beribdilar:

Bugun saroyga oq otda ko'rkam kiyinib, yarog'-aslahalari o'ziga yarashgan bahodir yigit ko'rib keldi. U o'z otida zinalar bo'ylab uchib chiqdi, lekin atigi ikkita zinani zabt eta olmadi. Otda ohista, yumshoqlik bilan yerga tushib, sakragan holda shahardan chiqib ketdi.

– Akalar, – debdi kenja uka, – ertaga mollarni boqishga qolinglar, men ham shaharga tushib, nimalar bo'layotganini ko'rib kelay.

– Yo'q, zinhor, zinhor yo'q! – qo'llarini silkitishibdi akalar. – Agar sen ketsang, biz ovqatsiz qolamiz.

Ertasi kuni ertalab akalar yana tomosha ko'rish uchun shaharga tushib ketibdilar.

Qo'ylarning qorni to'yganda kichik uka ularni yana tol butalari orasiga haydab, jiyron otning soch tolasini yoqibdi. Shu ondayoq to'la-to'kis yarog'-aslahali, anjomlar bilan chiroyli yasatilgan jiyron ot paydo bo'libdi. Yigit qayta kiyinib, kerakli yarog'-aslahalarni olib, otga minibdi-da, shaharga qarab yo'l olibdi. Zinalar yoniga kelib qichqiribdi:

– Chuh, otim! Meni manzilga yetkaz!

Jiyron ot shamoldan ham tez yelib kelib, tepaga ko'tarilibdi. Lekin faqat o'ttiz to'qqizta zinani zabt etibdi. Ot orqaga burilib, to'rt oyog'i bilan ohista yerga tushibdi va bir sakragan holda ko'zdan g'oyib bo'libdi.

Xalq esa qichqirib qolibdi:

– Eh, senga nima bo'ldi?! Salgina harakat qilsang bo'lardi, nima qo'rqdingmi?

Akalar uyga qaytib, yana bo'lgan voqeani aytib berishibdi:

– Qanday tomosha bo'lganini ko'rsang edi! Jiyron otda bir bahodir keldi. Bu ot kechagi oq otdan kuchliroq ekan. Xuddi qush kabi tepaga ko'tarilib, o'ttiz to'qqizinchi zinani zabt etdi. Bit-tasigagina majoli yetmadi.

– Ertaga sizlar mollarni boqasizlar, – debdi kichik uka, – men esa shaharga borib, tomosha ko'rib kelaman.

– Yo'q, buning hech iloji yo'q, – xavotirlanishibdi akalar. – agar sen shaharga ketsang, bizning ahvolimiz nima kechadi?! Buni o'ylab ham o'tirma.

O'zlari esa ertalab turib, yana shaharga yo'l olishibdi.

Kichik uka esa, mollarini boqgach, odatdagidek ularni tol butalari orasiga haydab kiribdi. Oxirgi yol tolasini olib, uni yoqibdi. Shu zahotiyog uning huzuriga misli ko'rilmagan holda bezatilgan va yasatilgan qora ot paydo bo'libdi. Yigit kiyimlarini almashtiribdi, zarur bo'lgan yarog'-aslahalar bilan yasanibdi. qora otiga minib, shahar tomon yo'rtib ketibdi. Saroy maydoni oldiga kelib, otiga:

– Olg'a, mening tulporim! – deb hayqiribdi.

Qora ot uchun bir zumda tik zinaning eng tepasiga chiqib olish hech qanday qiyinchilik tug'dirmabdi. Yigit qizning qo'lidagi bir piyola suvni olib simiribdi, uning barmog'idagi uzukni yechib olibdi, so'ngra ot ohistalik bilan yerga qaytib tushibdi.

Yigit otariga qaytib, o'zining oddiy kiyimini kiyib olibdi. Qora otini qo'yib yuborib, hech narsa bo'lmagandek yana mollarini boqa boshlabdi. Akalari esa shahardan qaytib, unga bo'lgan voqealarni so'zlab beribdi:

– Bugun maydonga bahodir yigit qora otda kirib keldi. Mana uning otini ot desa bo'ladi! Oldingi ikkala ot uning oldida go'yo qulunlardek edi. Qora ot ko'shikka osongina chiqdi. Bahodir

yigit otdan tushdi, qizning qo'lidagi piyoladan suvni ichdi, uning barmog'idagi uzukni yechib olib, o'zining qo'lga taqdi va oti bilan ko'zdan g'oyib bo'ldi.

– Akajonlar, – debdi kichik uka. – Bir kungagina mollarni boqib turinglar, men ham shu tomoshalarni ko'rib kelay.

– Uka, endi u yerda tomosha qiladigan narsa qolmadi. Botir yigit g'alaba qozondi, tomosha tugadi.

Aka-ukalar mollarni boqishni davom ettiribdilar.

Kunlardan bir kuni jarchilar podshohning farmonini e'lon qilib qoldilar:

– Podshoh saroyiga zina bo'ylab ko'shikka ko'tarilib, qizning qo'lidan suv ichib, uning uzugini olgan yigit yetib kelsin!

Lekin malikaning uzugini yechib olgan yigit shoh saroyiga yetib kelmabdi. Shunda shoh o'z yurtidagi barcha yigitlarni to'plashni buyuribdi. Ularga osh tortilibdi. Yigitlar osh yeyish oldidan qo'llarini yuvishayotganida shoh vaziri diqqat bilan ularning qo'llariga qarab turar ekan. Lekin ulardan hech birining qo'lida malikaning uzugi ko'rinmabdi.

– Biron kishini taklif qilishni unutmadinglarmi? – so'rabdi shoh yaqinlaridan.

– Saltanatning barcha yigitlari kelishdi. Faqat aka-uka cho'ponlargina qoldi, – deyishibdi ular.

Podshoh ularni saroyga keltirishni buyuribdi. Vazirning o'zi yigitlarning qo'lga suv quyib turib, kenja yigitning barmog'ida malikaning uzugini ko'rib qolibdi. Saroy ahli bundan juda mamnun bo'libdi, hamma yigitni qutlay boshlabdi. Katta akalarning esa hayratdan ko'zlari qinidan chiqib, ajablanganicha der emish:

– Qanday qilib malikaning uzugi ukamizning qo'lida paydo bo'lib qoldi?!

Kichik uka jilmayib, ularga ota vasiyati to'g'risida gapirib beribdi. Tun yarmida uning qabri tepasida oq, to'riq, qora otlar paydo bo'lganini, ularning har biri bilan saroy maydoniga borgani to'g'risidagi hikoyalarini eshitgan akalar ota vasiyatiga amal qilmaganliklaridan juda afsuslanibdilar.

To'y tantanalari qirq kecha-yu, qirq kunduz davom etibdi. Bir oydan so'ng esa, shoh uni davlatni boshqarish uchun o'z o'rniga o'tqazibdi.

